

OLIIY TA'LIM TIZIMIDA TALABALARNING TIL KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHDAGI CLIL YONDASHUVINING AHAMIYATI

Shodiyeva Nilufar Olim qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

tayanch doktoranti

e-mail: lilyshadieva@qamil.com

Tel: 973815331

Annotatsiya: *Ushbu tezisdagi oliy ta'lim tizimida talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishdagi CLIL yondashuvining muhim jihatlari shuningdek, chet tillarini o'qitish jarayonida mazmun va tilni integratsiyalash usuli talabalarda bir vaqtning o'zida fanga oid bilimlarni va til kompetensiyalarini rivojlantirishi xususida fikr yuritilgan.*

Kalit so'zlar: *Oliy ta'lim, chet tili, CLIL, 4C modeli, ikki tillilik, til kompetensiyasi.*

Аннотация: *В данных тезисах рассматриваются важные аспекты применения подхода CLIL в развитии языковой компетенции студентов в системе высшего образования. Также освещается, каким образом интеграция содержания учебных дисциплин и иностранного языка в процессе обучения способствует одновременному формированию предметных знаний и развитию языковых компетенций обучающихся.*

Ключевые слова: *Высшее образование, иностранный язык, CLIL, модель 4C, двуязычие, лингвистическая компетенция.*

Abstract: *These theses discuss key aspects of the CLIL approach in developing students' language competence in higher education. They also highlight how the integration of subject content and language in the process of foreign language teaching contributes to the simultaneous development of both subject knowledge and language competences.*

Keywords: *higher education, foreign language, CLIL, 4C model, bilingualism, linguistic competence.*

Bugungi globallashuv davrida chet tillarini bilish va uni uzliksiz ta'lim jarayonlarining barcha bosqichlarida o'qitishga bo'lgan talab kundan kunga ortib bormoqda. Ushbu jarayonda oliy ta'lim tizimida talabalarning til kompetensiyasini yanada rivojlantirishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlardan foydalanish unumli sanaladi. Til kompetensiyasi – bu Chomsky (1965) ta'kidlaganidek, insonning til tizimini ichki tarzda bilishi, izohlab aytganda: grammatik qoidalarni, so'zlarning tuzilishi va ularni qo'llanishini, gap tuzish qoidalarini, til birliklarini qanday holda bog'lashni ong ostida bilishi va uni tushinish qobiliyatidir. Grammatik va ma'noviy jihatdan to'g'ri tuzilgan va yetarli lug'at boyligi bilan shakllangan gapni tuzish ko'nikmalarini shakllantirish chet tilini o'qitishning asosiy maqsadlaridan biri hisoblanadi. Ushbu tushunchalarning barchasi til kompetensiyasiga asoslangan holda rivojlanadi. Kommunikativ kompetensiya esa aynan shu til kompetensiyasiz shakllanmaydi bunda, talaba erkin muloqot qilishi uchun grammatik va leksik bilimga ega bo'lishi lozim.

Kommunikativ kompetensiya tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, Dell Hymes birinchi bo'lib kommunikativ kompetensiyani tilshunoslikning ijtimoiy yo'nalishi ya'ni sotsiolingvistikaga kiritgan. Hymes (1972) o'z fikrini adabiyotlarida quyidagicha izohlaydi: til kompetensiyasini faqatgina grammatik strukturalarni bilish bilan cheklash no'to'g'riligini, til egasi nutqiy birliklarni real ijtimoiy vaziyatda mos ravishda qo'llay olishi qobiliyatiga ham ega bo'lishi kerakligini ilgari suradi. Ya'ni bunda, shaxs nafaqat grammatik jihatidan to'g'ri

gap tuzishi muhim balki, nutqning qaysi muhitida, qaysi shaklda, kim bilan va qanday kommunikativ maqsadda qo'llanishi mumkinligini ham bilishi muhim sanaladi.

Shukin (2009) kommunikativ kompetensiyani esa quyidagicha ta'riflaydi: kommunikativ kompetensiya bu – nutqiy muloqotning turli vaziyatlarida lingvistik kompetensiyani amalda qo'llash qobiliyatidir. Talaba kommunikativ kompetensiyaga ega hisoblanadi, qachonki u to'g'ridan to'g'ri yoki bilvosita muloqot sharoitida o'rganilayotgan til egalariga xos madaniyat me'yorlari an'alariga muvofiq holda o'zaro tushunish hamda hamkorlik vazifalarini muvaffaqiyatli hal qila olsa. Ya'ni bunda faqatgina tilning qoidalarini bilishning o'zi kifoya qilmaydi, agar talaba grammatik qoidalarini, so'zlarni, gaplarning strukturaviy tuzilishini bilsayu ammo, suhbatni davom ettira olmasa, o'z fikrini tushuntira olmasa, vaziyatdan kelib chiqqan holda gapira olmasa, bu holatda kommunikativ kompetensiya to'liq holda shakllanmagan bo'ladi. Asosiy g'oya bilimni amalda qo'llash ya'ni Shukin ta'rificha lingvistik kompetensiya bu - til qoidalarini bilish bo'sa, kommunikativ kompetensiya esa, shu bilimlarni real muloqotda, real vaziyatda ishlata olish qobiliyati.

CLIL (Content and Language Integrated Learning) – bu yondashuv muayyan fanning mazmunini va tilni bir vaqtda o'qitish demakdir, bunda til alohida mavzu sifatida emas, balki fan asosiy o'rganish vositasi sifatida qaraladi. CLIL asosida o'qitiladigan darslarda doim ikkita maqsad qo'yiladi ular: mazmuniy va til maqsadlari hisoblanadi. Masalan, tadqiqotimizdan kelib chiqqan holda O'zbekistonning madaniy merosi mavzusiga oid darslarda CLIL asosida o'qitishning samarali jihatlariga to'xtaladigan bo'lsak, bunda talabalar tarixiy-ma'naviy bilim bilan birgalikda chet tillarini ham rivojlantirishadi. Ushbu holatda darsning mazmuniy maqsadlari quyidagicha bo'ladi: talabalar O'zbekistonning tarixiy obidalari va madaniy merosi haqida ma'lumot olishi. Til maqsadi jihatidan esa: joylarni tasvirlay olishi, tarixiy obyektlar haqida gapira olishi va fikr bildiray olishi kerak sanaladi.

CLIL yondashuvi asosida o'qitish jarayonida til kompetensiyasi quyidagicha rivojlanadi: yangi so'zlar o'rganiladi, turli shakldagi grammatik strukturalar ishlatiladi, gap tuzish malakasi takomillashadi, real mavzu asosida gapira olish rivojlanadi, akademik nutqning shakllanishiga sabab bo'ladi. CLIL yonashuvida 4C modeli dars jarayonlarini samaraliroq tashkil etish uchun muhim metodik asos sanaladi. 4C modeli – bu Content (mazmun), Communication (muloqot), Cognition (fikrlash), Culture (madaniyat) hisoblanadi.

Content ya'ni mazmun komponenti orqali talabalar tilni real akademik mazmun orqali o'zlashtiradi, natijada til bilimlari amaliy va barqaror tarzda shakllanadi. Communication komponenti esa, tilni kommunikativ vazifalar orqali faol qo'llashni ta'minlab beradi va talabalarni fan diskursida erkin fikr bildirishga sabab bo'ladi. Cognition komponenti talabalarni mavzu doirasida yuqori darajadagi fikrlashga, tahlil qilishga, dalillarni taqqoslashga, ularni baholashga va muammoni yechishga yordam beradi. Culture komponenti orqali esa, ta'lim jarayonining ijtimoiy va madaniy kontekst bilan boyishini anglashiladi, bunda talabalarda intercultural kompetensiya va global fikrlash jarayoni shakllanadi.

4C modelining ushbu jarayondagi ahamiyati shundaki, bunda til va fan bir vaqtda rivojlanadi, talabalar nafaqat til o'rganishadi balki, fanning mohiyatini ham anglashadi. Talabaning fikrlashi yanada rivojlanadi, faqatgina yodlash emas balki, ma'lumotlarni tahlil qila olish, taqqoslash va xulosa chiqara olish ko'nikmalari takomillashadi. Real vaziyatlarda tilni ishlata olish, boshqa madaniyatlar bilan taqqoslash hamda akademik va kommunikativ ko'nikmalarni kompleks tarzda rivojlantirish imkonini beradi.

Oliy ta'lim tizimida talabalarning til kompetensiyasini rivojlantirishda CLIL yondashuvi unumli vositalardan biri hisoblanadi. Demak, CLIL yondashuvi talabalarning

mustaqil fikrlashini, birgalikda jamoaviy ishlash ko'nikmalarini va nutqiy faoliyatini kuchaytirib, til kompetensiyasining barqaror rivojlanishini ta'minlaydi. Mazkur yondashuv tilni alohida bir o'quv predmeti tarzida emas, balki fan mazmunini egallash, muloqot ko'nikmalarini takomillashtirish, tanqidiy va ijodiy fikrlashni shakllantirish hamda intercultural kompetensiyani rivojlantirish imkoniyatini beradi. Ushbu jarayon talabalarni real akademik va kasbiy muhitda samarali faoliyat yurita oladigan mutaxassis sifatida tayyorlashga xizmat qiladi. Tadqiqotimizdan kelib chiqib CLIL yondashuvini O'zbekiston madaniy merosini va tarixini o'rganishiga qaratilgan darslarda integratsiya qila olsak talabalar fanga, tilga, madaniyatimizga, milliylikimizga bo'lgan tushunchasi kengroq shakllanadi va eng asosiysi til kompetensiyalari va kommunikativ kompetensiyalari kompleks tarzda rivojlanadi.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Chomsky, N. (1965). Aspects of the Theory of Syntax. Cambridge, MA: MIT Press. – 251 p.
2. Hymes, D. (1972). On Communicative Competence. In J. B. Pride & J. Holmes (Eds.), sociolinguistics (pp. 269-293). Penguin.
3. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical bases of communicative approaches to second language teaching and testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47. <https://doi.org/10.1093/applin/I.1.1>
4. Mehisto, P., Marsh, D., & Frigols, M. J. (2008). Uncovering CLIL: Content and language integrated learning in bilingual and multilingual education. Macmillan Education. – 238 p.
5. Coyle, D., Hood, P., & Marsh, D. (2010). CLIL: Content and language integrated learning. Cambridge University Press. – 169 p.
6. Азимов, Э. Г., & Щукин, А. Н. (2009). Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). ИКАР. – 98 p.